



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
XORIIY TIL VA ADABIYOTI YO'NALISHI
O'QITUVCHISI
QODIROVA DILNOZANING

REFERATI

NAMANGAN 2016-2017

TEMUR VA TEMURIYLAR ADABIY ME'ROSI JAHON ADABIY JARAYONIDA

I.KIRISH

I.AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR – JAHON TARAQQIYOTI SAHNASIDA

II.AMIR TEMUR VA TEMUR OBRAZI JAHON ADABIYOTI JARAYONIDA

III.AMIR TEMUR G'ARBIY YEVRO'A OLIMLARI NIGOHIDA

IV.TEMUR TO'G'RISIDAGI TARIXIY ASARLAR VA ULARNING JAHON ADABIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

KIRISH

Yurtimizda Prezidentimiz I.Karimov rahbarligida keng iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy soha rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Amir Temur hayoti va faoliyatini, Temuriylar tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish dunyo miqyosida hech kachon susaymaganidan dalolat beradi. Aksincha, keyingi vaqtda dunyoda, ayniqsa, Yevro'ada ushbu mavzuga ehtibor yanada ortgani kuzatilmoqda va quvonarli holdir¹.Mustaqillikning tarixan qisqa vaqti ichida ko'plab buyuk vatandoshlarimizning nomi o'z xalqiga qaytarildi. Respublika Prezidenti va YUNESKOning tashabbusi bilan Amir Temur, Ismoil Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, Yusuf Hamadoniy, 2004 yilda-Abdulxoliq G'ijduvoniylarning tavallud to'ylari, o'zbek xalq qahramonlik dostoni «Alpomish»ning 1000 yilligi, yurtimizda shakllangan «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi. Mustaqil rivojlanib borayotgan hayot, iqtisodiyot va madaniyatimiz sohalarida yanada yuksak natijalarga erishaylik desak, bu allomalarning hayoti va faoliyatlarini chuqur o'rganib, ulardan saboq olishimiz zarur.

1996 yilning 24 aprelida YUNESKO «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'рни» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazdi. Anjumanda 100 dan ortiq xorijiy mamlakatlar vakillari, yirik davlatlar arboblari qatnashdilar. Bundan

tashqari o`sha mamlakatlarning o`zlarida ham buyuk bobomiz tavalludi tantanali nishonlandi.

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe' tutmaydi. U o`z poytaxti bo`lmish Samarqandni yer yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Bu ulug' zot qurdirgan me'morchilik va xalq san'atining javohirlari yanglig' bugungacha qad ko'tarib turgan osori atiqalar shahar va qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib kelyapti. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, dushmanlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishi va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hakimlar, me'morlar va shoirlarning buyuk homiysi yanglig' dong chiqargan.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR – JAHON TARAQQIYOTI SAHNASIDA

Turkistonning buyuk farzandi Amir Temurning siyosiy faoliyatiga va harbiy yurishlariga bag'ishlangan adabiyotlar juda ko'p, XIV-XV arslardagi tarixiy asrlar orasida Sharafuddin Ali Yazdiyga tegishli Zafarnoma alohida o'rin egallaydi. Yazdiy Temur xayotining so'nggi yillarida uning bosh devonida xizmatda bo'lib, Temurning Kichik Osiyo mamlakatlariga bo'lgan yurishlarida qatnashgan².

Sovetlar davridagi tarixiy asarlarda Temurga va uning tarixda tutgan urniga keskin salbiy baho byerildi. Amir Temurning siyosiy maydonda paydo bo'lishi XIV asrning 60 yillaridan boshlandi. Bu davrda, ya'ni XIV asrning o'rtalarida Chag'atoy ulusi ikki qismga Mavarounnaxr va Mug'ulistong'a bo'linib ketgan edi. Har ikkala xududda ham siyosiy parokandalik kuchayib chingiziy shaxzodalar o'rtasida xokimiyat uchun kurash avj olgan edi. Chig'atoy ulusining har ikkala qismi mayda mustaqil beklarga bo'linib ketdi. Ulusning "G'arbiy qismida hokimiyatni asosan turk-mug'ul qabila boshliqlari egallagan. Masalan, Kesh shaxri va viloyat amir Xoji Barlos, Xo'jand viloyati Boyazid jaloir, Balx viloyati Amir

Qozag`onining nabirasi Amir Xusayn qo`liga o`tdi. Ana shunday bir qiyin siyosiy vaziyatda Sohibqiron Amir Temur tarix saxnasiga chiqdi.

Amir Temur 1336 yil 8 aprelda Keshga qarashli Xo`ja Ilg`or (hozirgi Yakkabog` rayoni) qishlog`ida barlos bekларidan biri Amir Tarag`ay ibn Barqol oilasida dunyoga keldi.

Bu davrda Movaraunnaxrda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og`irlanib, mamlakatda o`zaro urushlarga barham byeradigan markazlashgan davlat barpo etish tarixiy zaruriyatiga aylanib qolgan edi. Buni chuqur anglab yetgan Amir Temur Movaraunnaxr hukumdori Amir Husaynga qarshi kurash olib borib 1370 yilda Movaraunnaxr taxtini egallashga muvoffiq bo`ldi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistolnga qilgan yurishda Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Baytun shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi. 1402 yilda usmoniylar impyeriyasining sultoni yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag`lubiyatga uchratdi. Temur 1404 yilning oxrida katta qo`shin bilan Xitoy safariga otlandi. Yulda Temur betob bo`lib uning qo`shinlari 1405 yilning yanvar oyida O`tror shaxrida to`xtaydilar va shu yyerda 1405 yilning 18 fevralida Amir Temur vafot etadi. Buyuk sohibqiron Amir Temur o`zining 35 yillik hukromligi davrida markazlashgan katta davlat tuzishga muvoffaq bo`ldi.

Temur turk-mo`g`ul an`analariga amal qilgan holda o`z davlati hududlarini suyurg`ol (ulus) tariqasida in`om qilish yo`li bilan boshqargan va Movaraunnaxrdan tashqaridagi yyerlarini to`rt ulusiga bo`lib, farzandlariga in`om etdi. Uluslar o`rtasida o`zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o`zi nazorat qilib turadi. Amir Temur hukmronlik qilgan davrida davlatning markaziy ma`muriyat boshida devonbegi, arkbegi va to`rt vazir turgan.

Yerga egalik shakllari-suyurg`ol yerlar, vaqf yyerlar, jamoa yyerlari edi. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig`i-xiroj bo`lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo`lgan.

Temur tuzuklarining Sharq yulduzi jurnali 1989 yilda chop etgan forschadan tarjimasiga yozib byergan o`z muqaddimisida prof. Bo`riboy Ahmedov

bunday deb qayd etadi Mutaxassis olimlarning (A.A.Semenov, Ch.R`e, E.G.Braun va boshqalar) so`zlariga qaraganda, Temur tuzuklari boshda turkiy tilda yozilgan va uning bir nusxasi Yaman hokimi Ja`far poshaning kutubxonasida saqlangan.

Temur tuzuklari ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo`lib, unda sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai nazari bayon qilindi. Bu asardan ko`plab sharq hukmdorlari o`zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho byerganlar.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning bolalik davridan to vafotiga qadar (1342-1405-yil 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movaraunnaxrda markaziy hokimniyatni qo`lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham byerishi va markazlashgan davlat to`zishi, Oltin O`rda xoni To`xtamishxon ustidan g`alabasi, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari bayon etilgan.

1447 yilda Shohruh Mirzo vafotidan so`ng Temurzodalar o`rtasida kurash boshlanib ketdi. Ulug`bekning shuhratparast o`g`li o`z otasiga qarshi urush boshladi. Oqibatda 1449 yilning oktyabr oyi oxirlarida Ulug`bek fojiali halok bo`ldi. Bu voqeadan so`ng Temuriy shahzodalar o`rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi. Padarkush Abdulatif 1450 – yilning 8 – mayida Samarqand yaqinida o`ldirildi. Bundan keyin 1451 – yilning yozigacha Samarqand taxtini Mirzo Abdulla egalladi. So`ngra taxtni ko`chmanchi o`zbeklar xoni Abulxayr yordamida Abdusaid egalladi. Abusaid vafotidan so`ng Xo`rasn taxtini 1469 – yildan boshlab Xusayn Boyqaro egalladi. U 1506 yilgacha hukmdorlik qildi. Uning davrida buyuk shoir va mutafakkir Alishyer Navoiy davlat ishlariga faol qatnashdi.

Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug` qozongan, millatimiz faxri bo`lmish ulug` zotlar benihoya ko`p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o`rin tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamrohu hamnafas bo`lib bormoqda. Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deyдилar.

Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin. Umrining mazmunini «millatning dardlariga darmon bo'lishdan iborat» deb bilgan Amir Temur xalqimizning ana shunday ardoqli, ulug' farzandidir. Hammamiz yaxshi bilamizki, tarixda mashqur jahongirlar ko'p o'tgan. Lekin ayting, dunyoning qaysi erida, qaysi zamonda Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek ilm-fan, ma'naviyat va ruhoniyyat homiysi bo'lgan?

AMIR TEMUR VA TEMUR OBRAZI JAHON ADABIYOTI JARAYONIDA

XIX asrning birinchi yarmida Piterburgda xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M.Sharmua Amir Temurning 1391 yildagi To'xtamishga qarshi yurishini batafsil yorituvchi katta asar tayyorlab, nashr qildi. Sharmua o'sha paytda Nizomiddin Shomiyning Fransiyada hali ma'lum bo'lmagan kitobidan tashqari, shu masalaga oid bir qancha manbalarga tayandi. Sharmua bu asarlarni fransuz tiliga tarjima qildi. Sharmuaning kitobi 1391 yilgi yurish tarixini o'rganish uchun hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. , Ko'pgina rus tarixchi olimlari, shu jumladan T.M.Granovskiy (1813—1855) ham Amir Temur shaxsiga qiziqdilar.

Granovskiy «jahon tarixining buyuk «arboblari»dan biri bo'lgan Amir Temur «horibcharchash nimaligini bilmaydigan faoliyat sohibi» ekanini to'g'ri ta'kidlab o'tdi, biroq ayni vaqtda Amir Temurning «muayyan va aniq idrok etilgan siyosiy maqsadi bo'lmagan edi», degan noto'g'ri fikrga bordi, bu fikr Sohibqiron tarjimai holining haqiqiy voqealariga mos kelmas edi.

Taniqli rus tarixchisi S.M.Solov'yev (1820 — 1879) ham Amir Temur shaxsiga e'tibor bilan qaradi. Uning ta'kidlashicha, Amir Temurning harbiy qo'shinlari o'jar va betayin To'xtamishga qarshi kurashda «Rossiya hududlariga kirib, Eletsni ishg'ol qildi». Solov'ev XIV asr o'rtalarida tarix sahnasida paydo bo'lgan Amir Temur «1371 yilda Kaspiy dengizidan Manjuriyagacha bo'lgan yerlarni qo'lga olganligi»dan iborat unutilmas voqeani ta'kidlab o'tadi. Uning tan olishicha, Amir Temur tomonidan tor-mor etilgan Oltin O'rda uzoq vaqtgacha Moskva knyazligiga xavf sola olmadi...

M.I.Ivaninning o'z zamonasi uchun juda mufassal, lekin endilikda eskirib qolgan asarini ham tilga olish joiz. U Amir Temur sarkardalik san'ati asoslarini manbalar va qo'llanmalar asosida mufassal bayon etishni maqsad qilib olgan edi.

Akademik V.V.Bartold ilmiy merosida Amir Temur va o'sha zamon haqidagi ma'lumotlar juda ko'p. Bu ma'lumotlar uyg'unlikda kattagina bilim xazinasini tashkil etadi.

Amir Temur haqidagi adabiyotda uning shaxsiga xos qiziquvchanlik, olimlarga, adabiyot va san'at arboblari homiylik, shatranj o'yiniga qiziqish, tashqi va ichki siyosat masalalaridan xabardorlik kabi fazilatlar tez-tez ta'kidlab o'tiladi. Sohibqironning bu muhim jihatlari V.V.Bartold tomonidan lo'nda, aniq va ifodali tarzda aks ettirilgan.

«Temur,— deb yozgan edi V. V. Bartold, — o'z ona (turkiy) tilidan tashqari fors tilida ham so'zlashar, olimlar bilan suhbatlashishni, ayniqsa tarixiy asarlarni o'qitib tinglashni yaxshi ko'rar edi; o'zining tarix sohasidagi bilimlari bilan musulmon tarixchilarining eng buyugi bo'lmish Ibn Xaldunni hayratga soldi; Amir Temur o'z jangchilarining ruhini ko'tarmish uchun tarixdagi shavkatli va afsonaviy qahramonlar haqidagi rivoyatlardan foydalanardi... Temur harbiy kuchlar tashkil etilishining barcha iker-chikirlarini shaxsan surishtirib turar, dushmanlarning kuchi va ular o'lkasining ahvoli haqida batafsil ma'lumot olar edi. Amir Temurning shaxsan ishtirokida bunyod etilgan imoratlar noyob badiiy did bilan bino qilingani sezilib turibdi...»³

Olimning yana bir xulosasi diqqatga molikdir: Amir Temur musulmon ruhoniylariga nisbatan «avvalo siyosiy mulohaza bilan ish tutar edi. Amir Temur dindorlarga sirdan izzat-ikrom ko'rsatar, diniy mol-mulkni boshqarishga aralashmas... o'z fuqarolari din aqidalariga rioya etishlari haqida g'amxo'rlik qilar edi... Ammo harbiy qurilish va aholining turmushi faqat qonunlar bilan belgilanar edi».

³ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - М.: Международные отношения. - 1980. - 341 б.

Amir Temur davlatda tartib bo'lishi g'oyalarini ilgari surganligini, Movarounnahr aholisining farog'ati uchun shunday bo'lishi zarur ekanini va bir-biriga dushman bo'lgan mayda hukmdorlar mavjudligi sharoitida bunga erishib bo'lmaydi, deb hisoblaganini ham Bartold ta'kidlab o'tadi. Amir Temur «serg'ayrat quruvchi» bo'lganini Bartold bir necha bor ta'kidlab o'tdi. U go'zal bog'lar bilan qurshalgan muhtasham binolar bunyod etdi, shahar va qishloqlarni qayta tikladi, ariq va zovurlar qazdirdi va ularni tuzattirdi; rasmiy tarixdagi (Sharafuddin Ali Yazdiy asaridagi) iboraga ko'ra, u bironbir ekin ekish mumkin bo'lgan yerlarning bo'sh yotishiga yo'l qo'ymas edi. Matnning ruhiga qaraganda, bu o'rinda Bartold ayni Movarounnahr yerlarini nazarda tutgan bo'lsa kerak. Ammo boshqa bir o'rinda Bartold «Temur o'zi tug'ilib o'sgan Movarounnahrdagina emas, Xurosonda ham, Mug'on dashti va Kobul havzasi kabi olis joylarda ham ulkan sug'orish inshootlari qurdirganini» ta'kidlab o'tadi (Sharafuddin Ali Yazdiy va G'iyosiddin Alining asarlarida ham shu fikr uchraydi).

Amir Temur barpo etgan saltanat uning vorislari davrida unchalik uzoq davom etmaganligi xususida fikr yuritilganda V.V.Bartoldning sezgirlik bilan qilgan kuzatuv diqqatga sazovordir. V.V.Bartold Sharq turmushi faqat sulolalar tarzigagina bog'liq, degan fikrni eskirib qolgan va noto'g'ri deb hisoblaydi va «Sharqda ham, G'arbda ham vayrongarchiliklarga ancha murakkab bahonalar sabab bo'lganligi allaqachon aniqlangan», degan fikrni bildiradi.

Turkistondagi davlatchilik tarixi yuzasidan V.V.Bartold tuzgan va shu vaqtgacha e'lon qilinmay qolgan matnning Amir Temurga bag'ishlangan uchinchi qismi alohida ahamiyatga molikdir. Unda 1370 yilgi qurultoy, Temurning olib borgan urushlari va ularning ahamiyati; mamlakat iqtisodiy salohiyati, madaniyati va san'atining rivojlanishi, savdo-sotiq, aloqa yo'llari va sug'orish inshootlari haqidagi g'amxo'rlik, mamlakatni idora qilish sohasida Amir Temur tomonidan rivojlantirilgan boshqaruv usullari; davlat hokimiyati tuzilmasida aks ettirilgan ijtimoiy shart-sharoitlar; ruhoniylar va savdogarlarning roli (dehqon qatlamlari) kabi masalalar qamrab olingan.

A.Yu.Yakubovskiyning Amir Temurga bag'ishlangan asari birinchi marta 1946 yilda bosilib chiqdi. U Sohibqironning dovyuraklik, saxiylik, odamlarning

yaxshi xislatlarini sezish, o'ziga kerakli yordamchilar tanlay olish, rahbarlik qila olish kabi fazilatlarini alohida uqtirib o'tadi. U Movarounnahrning barcha hukmdorlari orasida birinchi va yakkayu yagona hokim bo'lib olgach, ayrim joylarda itoatsiz va jangari hokimlarga qarshi kurashni kuchaytirdi, «ko'pgina shaharlarning aholisi va dehqonlar, shuningdek, musulmon ruhoniylarning namoyandalari uning bu ishini bajonu dil qo'llab quvvatladilar».

Temur to'g'risidagi tarixiy asarlar va ularning jahon adabiyotidagi o'рни va ahamiyati

«Zafarnoma» asari Sharafuddin Ali Yazdiy (1454 y. vafot topgan)ning qalamiga mansub bo'lib, ko'tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar «Zafarnomai Temuriy», «Tarixi jahonkushoyi Temuriy», «Fathnomai Sohibqironiy» nomlari bilan ham atalgan bo'lib, Nizomiddin Shomiy asari asosida yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor. Masalan, ko'plab dalil va hodisalar aniqlab yozilgan. Xalil Sulton xukmronligi yillari voqealarini ham o'z ichiga olgan. Asarning yana bir muhim afzalligi shundaki, uning katta muqaddima qismi ham bo'lib unda Jo'ji, Chig'atoy uluslari hamda elxoniylar davlatining Amir Temurgacha bo'lgan tarixi qisqacha bayon etilgan. Muqaddima «Tarixi Jahongiriy» va «Muqaddimai Zafarnoma» nomlari bilan ma'lum. Sharafuddin Ali Yazdiy bu asarini Fors hokimi, Temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirig'i bilan yozgan (1425).

Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan (1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo'yilishigacha (1409) bo'lgan davrda Movarounnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Asarning qo'lyozma nusxalarini Osiyo va Yevropadagi talaygina mamlakatlarning kutubxonalarida uchratish mumkin.

Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» sining matni ikki jildda Kalkutta (1885-1888) va Tehron (1957)da Mavlaviy Muhammad Ilohdod va Muhammad Abbosiylar tarafidan chop etilgan. Fransuz (Peti de La Krua, 1722) va ingliz (J. Darbi, 1723) tillariga qisqacha tarjimalari ham bor, Asarning Shayboniylardan Ko'chkunchixon (1510—1529) zamonida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al Buxoriy o'zbek tiliga qilgan durustgina tarjimasi ham bizgacha yetib kelgan.

XIX asrda shoir va vazir Munisning topshirig'iga binoan Xudoyberdi ibn Ko'shmuhammad Xivaqiy qilgan tarjima va Yaroqbiy Ko'ng'irotning ko'rsatmasi bilan noma'lum tarjimon qilgan o'zbekcha tarjimalari, shuningdek Mustafo Rahimning turkcha tarjimasi (Istanbul, 1929) ham mavjud.

Asardan ayrim parchalar fransuz, ingliz, rus, italyan va o'zbek tillarida chop etilgan. Parchalar Oltin O'rda hamda Amir Temurning 1360—1370 (Movarounnahr), 1398—1399 yillardagi (Hindiston yurishi) tarixiga oiddir.

Har ikkala «Zafarnoma» Movarounnahr, Eron va Ozarboyjonning ijtimoiy-siyosiy va etnik tarixini, xalqining madaniy hayotini, shuningdek Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan siyosiy munosabatini o'rganishda muhim manbadir.

Sharafuddin Ali Yazdiy asarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u hassos yilnomachi sifatidagina emas, balki iste'dodli adib, mohir bayonchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Keyinchalik ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy risolaning shu jihatini alohida uqtirib, Sharafuddin Ali Yazdiyning asarini mahorat bilan yozilgan eng mukammal risolalar jumlasiga kiritadi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida «Zafarnoma» «Markaziy Osiyo tarixnavisligining durdonasi» sifatida baholanadi.

XX asrning yirik sharqshunosi va forsiy manbalar bilag'oni A.K.Arends Shomiy va Yazdiy «Zafarnoma» larini solishtirib, ushbu haqqoniy gapni aytgan edi: «Amir Temur haqidagi dastlabki asarlardan biri Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» nomli rasmiy tarixi bo'lib, bu asar hali Amir Temur hayotlik vaqtidayoq tuzilgan edi.

Biroq Amir Temur davri tarixiga oid anchagina to'liq ma'lumot Sharafuddin Ali Yazdiyning ilm-fanda «Zafarnoma» nomi bilan mashhur bo'lgan asarida berilgan...»⁴

Tarixchi va olim Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur tarixini yoritishga katta ehtiyotkorlik bilan yondoshadi. Muallif o'z kitobini imkoni boricha ishonchli faktik materiallar, Amir Temur buyrug'iga asosan uning kotiblari tomonidan yozib

⁴ «Зафарнома», 288 бет

qoldirilgan voqealar, bu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar ma'lumoti asosida badiiy tarzda bayon etgan. Amir Temurning davlatchilik bobidagi qarashlari to'g'ri, aslidagidek o'girilgan. Ularda o'tmishdagi buyuk hukmdorlarning turmush tarzi, faoliyat tarzi, insoniylik fazilatlari, so'z, ish, xulq-atvor birligi to'g'ri taqdim qilingan. Barcha narsada adolatga rioya qilishlik («Kuch - adolatda», «Sila - v s'ravedlivosti»), hukmdorning o'z qarorida qat'iyligi, adovat saqlamasligi, chehrasi ochiqligi, rahmdilligi va oliyjanoblighi, kambag'al va g'ariblarga hamdardlik xalqning, jumladan, kitobxonning ham muhabbatiga sazovor qiladi. Tarjimalarni o'qir ekanmiz, qabul qilingan loyihani yoki qo'yilgan maqsadni 'irovard natijaga olib borish, har bir mintaqaning sajiyasi va holatini, aholining xulq-atvori va odatlarini yaxshi bilganlarni u yerlarga rahbarlikka tayin etish, avvalgi hukmdorlarning ko'tarilishi va inqirozlari sabablarini bilish, do'st va dushmanlar bilan qanday yo'l tutish zarurligini anglash, ziyrak, hushyor,, faol, mulozamatli, farosatli bo'lish, ezgu ishlar qilish, bo'htonga quloq solmaslik kabi sof insoniy fazilatlar Sohibqironning bugungi rahbarlarga nasihatiday jaranglaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ona yurtimoz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng iliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2014.- 304 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse'tsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b
4. Karimov I.A. O'zbekiston Res'ublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1-sentyabr';2-b
5. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom – taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabar';1-b
6. Karimov I.A. "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar';2b
6. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. T., "O'zbekiston", 1996, 25-b.
7. Karimov I.A. Asarlar. 10 jildlik. - Toshkent: O'zbekiston. 1993-2004. 6-b
8. Jean- 'aul Roux. Tamerlan. 'aris, 1994 '-10
9. Jean- 'aul Roux. Tamerlan. 'aris, 1994 '-9
10. M. Daden-hart. Tamerlan in der literature des wesllichen Euro'as Archiv Fur das Studium dez Neueren S'rachen. Braunschwerin. 1913, vol.123
11. Christofer Marlowe "Tamburlane the Great", 'art I,2,7 '-45
12. A.T.'arfenov, Kristofer Marlo i Lagendo Vostoka i Za'ada. V kn. K.Marlo. Dve tragedii. M., «'rogress», 1980 s-58
13. Xilda Xukxem «Vlastitel' semi sozvezdiy». T., 1996 s-17.
14. Hilda Hukhem "The Lord of seven stars". L., 1962 '-48.
15. Hilda Hukxem "Yeti iqlim sultoni", T., 1996 45-b.
16. Ma'ruf Jalil "Buyuk Temur" T. 1996 48-b
17. ' Henderson "Christjfer Marlowe", L., 1983 '-9.
18. L. Wooley "The Sumerians". L., 1988. '-25